



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIY MEROS AGENTLIGI**

**AGENCY OF CULTURAL HERITAGE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

Pochta manzili: 100029, Toshkent shahar, Taras Shevchenko ko‘chasi, 1-uy.

e-mail: [info@madaniymeros.uz](mailto:info@madaniymeros.uz), [tmma@exat.uz](mailto:tmma@exat.uz)

2025-yil 8-oktabr.

02-11/3979-sonli

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi,  
Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax,  
Sirdaryo, Buxoro, Xorazm, Navoiy,  
Surxandaryo, Andijon, Toshkent  
viloyatlari va Toshkent shahar  
madaniy meros boshqarmasi**

Madaniy meros agentligi huzuridagi Ilmiy-ekspert kengashining 2025-yil 22-sentyabr kuni Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan 16-sonli navbatdan tashqari yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun yuborilmoqda.


Ilova:\_\_\_varaqda.

**Direktor birinchi  
o‘rinbosari, Kengash raisi**



**T. Kuziyev**

02-11/99  
08.10.2025 й



Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, “O‘zgarish” ko‘chasi,  
18-manzilda bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari yig‘ilish  
BAYONNOMASI № 16

2025-yil 22-sentabr

Toshkent shahri

**Raislik qiluvchi:** I.Yusupov –Ilmiy-ekspert kengashi raisi  
o‘rinbosari.

**Qatnashdilar:** Ilmiy-ekspert kengashi a‘zolari: I.Yusupov,  
X.Sultonov, F.Usmonov, B.Raxmanov, M.Saidov  
hamda M.Mumin-Axunova

**Qatnashmaganlar:** T.Kuziyev Sh.Pidaev va D.Yakubjanova

**Mas‘ul kotib:** X.Haydarov.

### KUN TARTIBI

1. Qashqadaryo viloyati, G‘uzor tumani, Xo‘jaguzar MFY hududida joylashgan “G‘uzor to‘rasining uyi” arxitektura yodgorligini restavratsiya, ta‘mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 01.08.2025-yildagi 01/477-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

2. Xorazm viloyati, Xiva shahar, “Zargarlar” ko‘chasida joylashgan “Olloqulixon madrasasi” madaniy meros obyektida ta‘mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasining 01.08.2025-yil № 206/1-25 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

3. Samarqand viloyati, Kattaqo‘rg‘on shahrida joylashgan “So‘fi Olloyor” masjidida ta‘mirlash-tiklash ishlari loyihasi

**Asos:** Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasining 26.07.2025-yil № 01-03/1738 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

4. Buxoro tarixiy markazda Xalqaro zamonaviy san‘at biyenalesi o‘tkaziladigan madaniy meros obyektlarining fasad qismini hamda mazkur hududda yoritish tizimini tashkil etish bo‘yicha loyiha.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 18-iyuldagi №04-KM/1681-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

5. Buxoro tarixiy markazda Xalqaro zamonaviy san'at biyenalesi o'tkaziladigan madaniy meros obyektlarida san'at asarlarini o'rnatish bo'yicha loyiha taklifi.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 18-iyuldagi №04-KM/1682-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

6. Buxoro shahar "Sitorai Moxi-Xossa majmuasa" hududida ko'kalamzorlashtirish bo'yicha loyiha.

**Asos:** Buxoro viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 6-avgustdagi №04-KM/1796-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

7. Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, "Qo'rg'on" turizm mahallasining qadimiy qiyofasini tiklash, 10-sonli musiqa maktabining sobiq binosini rekonstruksiya qilish, hunarmandlar markazini tashkil etish, kommunikatsiya tizimlarini yaxshilash va obodonlashtirish ishlari loyihasi.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 10-iyuldagi 04-KM/1622-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

8. Buxoro shahri, Xo'ja Gulrez ko'chasi, 13-uy manzilda joylashgan **"Qadimiy hovli (Hovli Poyon)"** madaniy meros obyektni "Buxoro jadidlari muzeyi"ga moslashtirish, restavratsiya-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 25.06.2025-yil 04-KM/1506 xati hamda dastlabki xulosasi.

9. Buxoro shahridagi Biyennale uchun "Mog'aki Attori masjidini" tarixiy kvartalini restavratsiya va moslashtirish loyiha taklifi.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 7-avgustdagi №04-KM/1806-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

10. Buxoro viloyati, Kogon tumanida joylashgan "Amir saroyi" va madaniy meros binolarini rekonstruksiya va restavratsiya qilish loyihasi.

**Asos:** Buxoro viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 7-avgustdagi №04-KM/1807-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

11. Surxondaryo viloyati, Termiz tumanida joylashgan "O'yiq Gumbaz maqbarasi" arxitektura obyektni ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Surxondaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 12.08.2025-yil № 01-10/644 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumanida joylashgan "Tuproqqal'a" arxeologiya yodgorligida ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros boshqarmasining 31.07.2025-yil № 01-03/01-491 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

13. Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, "Avliyo" QFY hududida joylashgan **"Sa'd Ibn Abu Vaqqos"** majmuasi 1-bosqich (maqbara va ayvon) ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 13-avgustdagi 01/253-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

14. Kasbi tumani hududida joylashgan "Namozgoh masjidi" ziyoratgohi arxitektura yodgorligini shimol tomon devoriga kontrofors o'rnatish loyihasi.

**Asos:** Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 12.08.2025-yildagi 01/523-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

15. Qashqadaryo viloyati, Koson tumanida joylashgan “Yerqo‘rg‘on” arxeologiya yodgorligini 3D panjara bilan o‘rash va obodonlashtirish ishlari loyihasi.

**Asos:** Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 14.08.2025-yildagi 01/536-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

16. Sirdaryo viloyati, Mirzabod tumani, Dehqonobod MFYda joylashgan “**Rayimjon Muhammadiyev**” monumental san’at yodgorligi madaniy meros obyekti hududida mukammal ta’mirlash ishlari loyihasi.

**Asos:** Sirdaryo viloyati madaniy meros boshqarmasining 14.08.2025-yil № Ch285 xati hamda dastlabki xulosasi.

17. Sirdaryo viloyati, Guliston tumani, Boyovut MFYda joylashgan “Hashartepa” arxeologiya yodgorligiga yetkazilgan zarar yuzasidan Tarixiy-madaniy ekspertiza o‘tkazish masalasi.

**Asos:** Madaniy meros agentligi, Arxeologiya bo‘limining 19.08.2025-yil № 120-sonli bildirishnomasi.

18. Toshkent shahar, “Amir Temur” ko‘chasi, 4-manzilda joylashgan “Hududiy elektr tarmoqlari” Ajning ma’muriy binosida rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish loyihasi.

**Asos:** Vazirlar Mahkamasining 22.07.2025-yildagi № 26/24-100 topshirig‘i.

19. Toshkent shahar, Olmazor tumani, “Zarqaynar” ko‘chasi, 123-manzilda joylashgan “Abu Bakr Kaffol Shoshiy maqbarasi”ga tutash hududda obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish loyihasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 20.08.2025-yildagi № 01-02/1227 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

20. Toshkent shahar, Olmazor tumani, “Chuvalachi” ko‘chasida joylashgan “Ko‘k to‘nli ota maqbarasi” hamda Qorasaroy ko‘chasi, 70-manzilda joylashgan “Madkarimboy madrasasi”ning muhofaza hududida qurilayotgan yer osti tunelining ustki qismini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish loyihasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 15.08.2025-yildagi № 01-02/1211 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

21. Navoiy viloyati, Nurota tumanida joylashgan “**Hammom**” arxitektura yodgorligini restavratsiya qilish hamda ta’mirlash-tiklash ishlari loyihasi.

**Asos:** Navoiy viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 22-avgustdagi №01-02/355-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

22. Xiva shahri, “Zargarlar” ko‘chasida joylashgan “Olloqulixon madrasasi” madaniy meros obyekti (YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy hudud) ta’mirlash loyihasi.

**Asos:** Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 22-avgustdagi №225/1-25-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

23. Xorazm viloyati, Bog‘ot tumani Qalajiqqal’a mahallasida joylashgan “Qalajiq majmuasi (Dovud qal’a) arxeologiya obyekti”ni asrashga doir ishlari loyihasi.

**Asos:** Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 20-avgustdagi №224/1-25-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

24. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Shota Rustaveli” ko‘chasi, 8-manzilda joylashgan **“Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ** ma’muriy binosini tashqi fasadini ta’mirlash loyihasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 03.09.2025-yildagi № 01-02/1320 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

25. Davlat nazorati bo‘limi tomonidan “Obyektlardan to‘g‘ri foydalanish va ishonchli muhofaza qilish” bo‘yicha ishlab chiqilgan qo‘llanmani ko‘rib chiqish masalasi.

**Asos:** Davlat nazorati bo‘limining 08.09.2025-yildagi №128-son bildirishnomasi.

26. Samarqand shahrida joylashgan “Qizlartepa” arxeologiya obyektni obodonlashtirish va konservatsiya qilish loyihasi.

**Asos:** Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasining 10.09.2025-yil № 01-03/2162 xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

27. Jizzax viloyati, G‘allaorol tumani, “Avliyo” QFY hududida joylashgan **“Sa’d Ibn Abu Vaqqos”** majmuasida 2-bosqich ziyoratgohdagi suv havzasining qulay hududlarida supa tashkil etish va mavjudlarini ta’mirlash ishlari loyihasi.

**Asos:** Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 10-sentabrdagi 01/278-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

28. Andijon viloyati, Baliqchi tumani, Turkiston MFYda joylashgan **“So‘fi ota”** masjidida qo‘shimcha binolar qurish loyihasi.

**Asos:** Madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti 05.09.2025-yil № 01-06/198 xati.

29. Toshkent viloyati, Angren shahrida joylashgan **“Angren shahar tarixi muzeyi”** binosini ta’mirlash ishlari loyihasi.

**Asos:** Toshkent viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 12-sentabrdagi №01-527-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

30. Toshkent viloyati, Parkent tumanida joylashgan **“Quyosh geliokompleksi”** hududida Sodiq Azimovga atalgan yodgorlik byustini o‘rnatish bo‘yicha taklif loyihasi.

**Asos:** Toshkent viloyati Madaniy meros boshqarmasining 2025-yil 20-avgustdagi №01-02/490-sonli xati hamda Ilmiy-maslahat kengashi xulosasi.

31. Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Arpapoya ko‘chasi, 1-manzilda joylashgan “G‘afur G‘ulom uy-muzeyi” madaniy meros obyekti binosini mukammal ta’mirlash bo‘yicha dizayn loyiha(AR) qismi loyihasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 17.09.2025-yil 01-02/1406-sonli xati hamda dastlabki xulosasi.

32. Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Shota Rustaveli” ko‘chasi, 22-manzilda joylashgan “To‘rt qavatli turar joy binosi”ning tashqi qismini rekonstruksiya qilish loyihasi.

**Asos:** Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasining 14.08.2025-yildagi № 01-02/1205 xati hamda boshqarmaning dastlabki xulosasi.

**Kun tartibidagi masalalarni atroflicha o‘rganib, muhokama qilib, Ilmiy-ekspert kengashi QAROR QILADI:**

1. Qashqadaryo viloyati, G'uzor tumani, Xo'jaguzar MFY hududida joylashgan "G'uzor to'rasining uyi" arxitektura yodgorligini restavratsiya, ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi:

Restavratsiya ishlari jarayonida yodgorlikning asl holatida, eshik va derazalarni mavjud shaklidagi yog'och bilan ishlangan turiga almashtirish hamda sinch bilan ishlangan devorini o'z holatida qoldirish sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Qashqadaryo viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

2. Xorazm viloyati, Xiva shahar, "Zargarlar" ko'chasida joylashgan "Olloqulixon madrasasi" madaniy meros obyektida restavratsiya va ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Xorazm viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

3. Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahrida joylashgan "So'fi Olloyor" masjidida ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

Shuningdek, mazkur obyekt bo'yicha Ilmiy-ekspert kengashining 19-21.05.2025-yildagi 8-sonli bayoni 6-bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

4. Buxoro tarixiy markazda Xalqaro zamonaviy san'at biyenalesi o'tkaziladigan madaniy meros obyektlarining fasad qismini hamda mazkur hududda yoritish tizimini tashkil etish bo'yicha loyihasi:

Taqdim etilgan loyihada ko'zda tutilgan ishlar bugungi kunga qadar bajarilgan ishlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Mazkur loyihadagi ishlar bo'yicha merosga bo'lgan ta'sir hisoboti tayyorlanib YuNESKO Umumjahon merosi markazi bilan kelishish (xulosasini olish) tavsiya etilsin.

5. Buxoro tarixiy markazda Xalqaro zamonaviy san'at biyenalesi o'tkaziladigan madaniy meros obyektlarida san'at asarlarini o'rnatish bo'yicha loyiha taklifi:

Taqdim etilgan loyihada ko'zda tutilgan ishlar bugungi kunga qadar bajarilgan ishlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Mazkur loyihadagi ishlar bo'yicha merosga bo'lgan ta'sir hisoboti tayyorlanib YuNESKO Umumjahon merosi markazi bilan kelishish (xulosasini olish) tavsiya etilsin.

6. Buxoro shahar "Sitorai Moxi-Xossa majmuasa" hududida ko'kalamzorlashtirish bo'yicha loyihasi yodgorlikning mavjud hududi va tarixiy landshaft ko'rinishiga mos emasligi sababli loyiha rad etilsin

7. Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani, "Qo'rg'on" turizm mahallasining qadimiy qiyofasini tiklash, 10-sonli musiqa maktabining sobiq binosini

rekonstruksiya qilish, hunarmandlar markazini tashkil etish, kommunikatsiya tizimlarini yaxshilash va obodonlashtirish ishlari loyihasi:

Loyihada kommunikatsiya, obodonlashtirish va ko'kalamlashtirish ishlari loyihada to'liq ko'rsatgan holda loyihani Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida qayta ishlab chiqib, Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**8. Buxoro shahri, Xo'ja Gulrez ko'chasi, 13-uy manzilda joylashgan "Qadimiy hovli (Hovli Poyon)" madaniy meros obyektini "Buxoro jadidlari muzeyi"ga moslashtirish, restavratsiya-tiklash ishlari loyihasi:**

Loyihada arxitekturaviy va restavratsiya jaroyoni bo'yicha chizmalarni to'liq ko'rsatgan holda loyihani Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida qayta ishlab chiqib, Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**9. Buxoro shahridagi Biyenale uchun "Mog'aki Attori masjidini" tarixiy kvartalini restavratsiya va moslashtirish loyiha taklifi:**

Taklif etilayotgan loyihada yodgorlik ichki qismidagi supa, zinapoya tarixiy ko'rinishga mos emas shuningdek, bajariladigan ishlar, elektro kabellarni binoning qaysi qismidan o'tkazish bo'yicha to'liq ishchi chizmalari berilmagan.

Mazkur loyihadagi ishlar bo'yicha merosga bo'lgan ta'sir hisoboti tayyorlanib YuNESKO Umumjahon merosi markazi bilan kelishish (xulosasini olish) tavsiya etilsin.

**10. Buxoro viloyati, Kogon tumanida joylashgan "Amir saroyi" va madaniy meros binolarini rekonstruksiya va restavratsiya qilish loyihasi.**

Loyihada restavratsiya ishlari va chizmalarini to'liq ko'rsatgan holda loyihani Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida qayta ishlab chiqib, Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**11. Surxondaryo viloyati, Termiz tumanida joylashgan "O'yi Gumbaz maqbarasi" arxitektura obyektini ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi.**

Mazkur loyihada yodgorlikni faqat konservatsiya ishlarini amalga oshirilishi nazarda tutilganligini inobatga olib, loyihaning muqova qismini "O'yi Gumbaz maqbarasi" arxitektura obyektini konservatsiya ishlari so'zi bilan to'ldirilishi va ta'mirlar-tiklash ishlari so'zlari olib tashlansin.

**12. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Ellikqal'a tumanida joylashgan "Tuproqqal'a" arxeologiya yodgorligida ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi.**

Loyihadagi tashrif markazini tarixiy davr ko'rinishida qayta ishlansin. Arxeologiya yodgorligini atrofini to'liq anhor bilan o'rab turilganligini inobatga olib yodgorlik hududini 3D panjara bilan o'rash qanchalik maqsadga muvofiqligini arxeologlar va Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniy meros boshqarmasi tomonidan o'rganib chiqqan holda Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida loyihani Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

Loyihani qayta tayyorlash jarayonida arxeologlar jalb qilinsin va ularning tavsiya va xulosalari inobatga olinsin.

**13.** Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, "Avliyo" QFY hududida joylashgan **"Sa'd Ibn Abu Vaqqos"** majmuasi 1-bosqich (maqbara va ayvon) ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi maqullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**14.** Qashqadaryo viloyati Kasbi tumani hududida joylashgan "Namozgoh masjidi" ziyoratgohi arxitektura yodgorligini shimol tomon devoriga kontrofors o'rnatish loyihasi maqullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**15.** Qashqadaryo viloyati, Koson tumanida joylashgan "Yerqo'rg'on" arxeologiya yodgorligini 3D panjara bilan o'rash va obodonlashtirish ishlari loyihasi:

Loyihadagi tashrif markazi olib tashlansin;

Tashkil etilishi rejalashtirilgan avto turargoh o'rnida arxeologik qazishma ishlari olib borib va olingan xulosa asosida avto turargoh joyini belgilansin;

Avto turargoh atrofida yodgorlik xaritasi hamda arxeologik qazishmalar vizualizatsiyasini aks ettiruvchi va yodgorlik tarixi yoritilgan 2 ta axborot beruvchi taxta o'rnatish sharti bilan ma'qullansin.

**16.** Sirdaryo viloyati, Mirzabod tumani, Dehqonobod MFYda joylashgan **"Rayimjon Muhammadiyev"** monumental san'at yodgorligi madaniy meros obyekti hududida mukammal ta'mirlash ishlari loyihasidagi axborot beruvchi sharti belgilarning bir-biriga mos emasligi sababli loyiha rad etilsin.

Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklarni to'liq bartaraf etib monument joylashgan o'rnini o'zgartirmagan holda loyiha Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**17.** Sirdaryo viloyati, Guliston tumani, Boyovut MFYda joylashgan "Hashartepa" arxeologiya yodgorligiga yetkazilgan zarar yuzasidan tarixiy-madaniy ekspertiza o'tkazish masalasi.

Taqdim etilgan ma'lumotlarda arxeologiya obyektining davriyligini aniqlashtirish so'ralmoqda biroq ushbu obyektida to'liq arxeologik qazishma ishlari olib borilmaganligi sababli davriy vaqti aniq ema.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda mazkur obyektни qaysi davrlargi ta'luqli ekanlini aniqlash maqsadida arxeologik qazishma ishlarini amalga oshirib Ilmiy-ekspert kengashi muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**18.** Toshkent shahar, "Amir Temur" ko'chasi, 4-manzilda joylashgan "Hududiy elektr tarmoqlari" Ajning ma'muriy binosida rekonstruksiya ishlarini amalga oshirish loyihasi.

Loyihadagi rejalashtirilgan ishlar bugungi kunda bajarib bo'linganligi hamda ushbu holat bo'yicha o'rnatilgan tartibda tegishli chora ko'rib uchun hujjatlar to'plami Bosh prokuraturaga yuborilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Bosh prokuraturaning ushbu holat yuzasidan tegishli xulosasi olingandan so'ng loyihani Ilmiy-ekspert kengashi muhokamsida ko'rib chiqilishi tavsiya etilsin.

**19.** Toshkent shahar, Olmazor tumani, "Zarqaynar" ko'chasi, 123-manzilda joylashgan "Abu Bakr Kaffol Shoshiy maqbarasi"ga tutash hududda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish loyihasida bajariladigan ishlar qaysi hududda olib borilishi ishchi chizmalari berilmaganligi tufayli taklif loyiha rad etilsin.

**20.** Toshkent shahar, Olmazor tumani, "Chuvalachi" ko'chasida joylashgan "Ko'k to'nli ota maqbarasi" hamda Qorasaroy ko'chasi, 70-manzilda joylashgan "Madkarimboy madrasasi"ning muhofaza hududida qurilayotgan yer osti tunelining ustki qismini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish loyihasida amalga oshiriladigan ishlar ishchi chizmalar bilan birgalikda qayta kiritilsin.

**21.** Navoiy viloyati, Nurota tumanida joylashgan "**Hammom**" arxitektura yodgorligini restavratsiya qilish hamda ta'mirlash-tiklash ishlari loyihasi ma'qullansin.

**22.** Xiva shahri, "Zargarlar" ko'chasida joylashgan "Olloqulixon madrasasi" madaniy meros obyektini (YUNESKONing Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan tarixiy hudud) ta'mirlash loyihasi:

Bugungi kunga qadar saqlanib qolgan moyolkalarni asl holati bo'yicha saqlab qolish sharti bilan ma'qullansin.

Mazkur obyektni mehmonxonaga moslashtirish bo'yicha loyihani ishchi chizmalari, kommunikatsiya tizimlarini to'liq ko'rsatgan holda Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

**23.** Xorazm viloyati, Bog'ot tumani Qalajiqqal'a mahallasida joylashgan "Qalajiq majmuasi (Dovud qal'a) arxeologiya obyekti"ni asrashga doir ishlari loyihasi:

Arxeologiya yodgorligining muhofaza hududida qurilish ishlarini amalga oshirmaslik;

Arxeologik qazishma ishlari xulosasini olish;

Tarixiy davrga moslashtirgan holda qurilishi rejalashtirilgan binoning peshtoqini III-IV asr arxitekturasiga moslashtirib Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

Loyihani qayta tayyorlash jarayonida arxeologlar jalb qilinsin va ularning tavsiya va xulosalari inobatga olinsin.

**24.** Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, "Shota Rustaveli" ko'chasi, 8-manzilda joylashgan "**Paxtasanoat ilmiy markazi**" AJ ma'muriy binosini tashqi fasadini ta'mirlash loyihasidagi tashqi derazalar atrofida o'rnatilishi rejalashtirilgan arxitekturaviy elementlarni qilmaslik sharti bilan ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

25. Davlat nazorati bo'limi tomonidan "Obyektlardan to'g'ri foydalanish va ishonchli muhofaza qilish" bo'yicha ishlab chiqilgan qo'llanmani ko'rib chiqish masalasi.

Davlat nazorati bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur qo'llanma kompilyativ xarakterga ega bo'lib, unda tahliliy yondashuv va amaliy takliflar yetarli darajada yoritilmagan.

Shu sababli, qo'llanma xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda, ilmiy asoslangan tahliliy ma'lumotlar bilan boyitilib Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritilishi tavsiya etilsin.

26. Samarqand shahrida joylashgan "Qizlartepa" arxeologiya obyekti obodonlashtirish va konservatsiya qilish loyihasi:

Qal'a devori boshlanish qismiga me'moriy yechim berish, qal'a devorining yuqori qismida ilk o'rta asrlar Samarqand Sug'di arxitekturasini ko'rsatish;

yodgorlikka zarar yetmagan holda qazishma jarayonida aniqlangan me'morchilik qoldiqlarini konservatsiya qilish (suvoq ko'rinishida) ishlarini amalga oshirish;

yo'l va yodgorlik oralig'idagi bo'sh turgan maydonni obodonlashtirish sharti bilan ma'qullansin.

Mazkur loyiha bo'yicha ushbu obyektida qazishma ishlarini olib borib kelayotgan arxeologlar xulosasini olish belgilab qo'yilsin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Samarqand viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

27. Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, "Avliyo" QFY hududida joylashgan **"Sa'd Ibn Abu Vaqqos"** majmuasida 2-bosqich ziyoratgohdagi suv havzasining qulay hududlarida supa tashkil etish va mavjudlarini ta'mirlash ishlari loyihasida taklif etilayotgan mehmon uyining 1-varianti ma'qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Jizzax viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

28. Andijon viloyati, Baliqchi tumani, Turkiston MFYda joylashgan **"So'fi ota"** masjidida qo'shimcha binolar qurish loyihasi:

Qurilishi rejalashtirilgan yangi masjid binosini madaniy meros obyekti vizual ko'rinishini berkitib qo'ymaydigan hududga joylashtirib, madaniy meros obyekti va yangi rejalashtirilgan bino orasida 10 metr masoqa saqlab, yangi bino tashqi ko'rinishini tarixiy binoning me'morchiligiga moslashtirib Vazirlar Mahkamasining 20.05.2024-yildagi 295-son qarori talablari asosida Ilmiy-ekspert muhokamasiga kiritish tavsiya etilsin.

29. Toshkent viloyati, Angren shahrida joylashgan **"Angren shahar tarixi muzeyi"** binosini ta'mirlash ishlari loyihasi ma'qullansin.

Muzey ekspozitsiyalarini joylashtirilishini Madaniy meros agentligining Muzey faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi va malakali mutaxassislar bilan kelishgan holda amalga oshirilishi tavsiya etilsin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**30.** Toshkent viloyati, Parkent tumanida joylashgan **“Quyosh geliokompleksi”** hududida Sodiq Azimovga atalgan yodgorlik byustini o‘rnatish taklifi ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent viloyati madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**31.** Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Arpapoya ko‘chasi, 1-manzilda joylashgan “G‘afur G‘ulom uy-muzeyi” madaniy meros obyekti binosini mukammal ta’mirlash bo‘yicha dizayn loyiha (AR) qismi loyihasi ma’qullansin.

YuNESKO ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi bilan kelishish belgilab qo‘yilsin.


Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**32.** Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, “Shota Rustaveli” ko‘chasi, 22-manzilda joylashgan “To‘rt qavatli turar joy binosi”ning tashqi qismini rekonstruksiya qilish loyihasi:

Bino tashqi qismida olib borilishi rejalashtirilgan ishlari to‘liqligicha bugungi kundagi mazkur bino tashqi ko‘rinishidagi bir xil Panton rangida qilish sharti bilan ma’qullansin.

Loyihadagi ishlarning amalga oshirilish nazorati loyiha muallifi va (Vazirlar Mahkamasining 15.10.2021-yildagi 649-sonli qaroriga asosan) Toshkent shahar madaniy meros boshqarmasi zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash mas’ul kotibi**



**X. Haydarov**